1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Arial» garniturasi. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI jurnali

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda 2

DOLZARB MASALA

Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq – komillik belgisi

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi 7
Sarvinoz Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari 8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari 11
Tojixon Sabitova. Maqollar badiiyatiga doir 12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mushtarakligi 14

TAHLIL

Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari 16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya 18
Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati 20
Umida Shermatova. Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limida binar ma'ruza metodi 22
O'tkur Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – bebaho ma'naviy boylik! ..... ,
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi – shoirning asl dardi 24
Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi 28
Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni 30
Nizomiddin Bozorov, Ilug'oy Choriyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari 32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlili 34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, tahlillar va takliflar 36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mushtarak jihatlari 38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir 40
Musajan Tadjibayev. Germenevtikada psixologik talqin muammolari 42

TADQIQOT

Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn 44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari 46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi 49
Arofatoy Muydinova. O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati 51
Mohigul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini 53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi 55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari 58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o 'ziga xos usullari 60
Abdishukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi dialektal so'zlar 63
Rahmatilla Norbekov. Munglig' qalblar kuychisi 65

KICHIK TADQIQOT

Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashma so'zlar 67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zamirida o'rganish mahorati 69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi 70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimzoda niyoziyning ashulalarida xotin-qizlar mavzusi 72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar chosеri"mi? 73
Nodira Xolikova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi 76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi – "xamsa" metodidan foydalanish usullari 78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini 80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Dildora YORBULOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING ASHULALARIDA XOTIN-QIZLAR MAVZUSI

"Jadid" so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, "yangi" ma'nosini beradi. Jamiyat ijtimoiy-manaviy muhitida yangilanish sodir bo'lishi, taraqqiyotning har jabhada o'z tadrijiga ega bo'lishi jadidchilikning asosiy me'zonidir. Bu davr adabiyoti yangilanish adabiyotidir. Undagi vakillarning xalqni ilm-ma'rifatli qilish yo'lidagi harakatlari tanqid ostiga olingan. Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabilar bunga yorqin misoldir. Ular jamiyat tafakkurini o'zgartirishga, jamiyatni ma'rifat bulog'i bilan sug'orishga ahd qilishgan edi. Ular qisqa vaqt ichida xalq maorifini o'zgartirishdi. Aslida jadidchilikning ildiz otishi, shu davrdagi ichki muhit bilan bevosita bog'liq. Bu harakat vakillari tarixda milliylikni oshirgan taraqqiyparvarlar nomi bilan ham qayd etildi. Ularning asosiy g'oyalari milliy mustaqillika erishish, xalqni ma'rifatli ko'rish, jamiyatni har jabhada taraqqiy ettirish edi.

Pedagogika sohasida ham jadidlar katta natijalarga erishishdi. Maktab, dorilfununlar tashkil etishdi. Maktab ochgan jadidlar darslik, qo'llanmalarni ham o'zlari yaratishdi. Saidrasul Saidazizning "Ustodi avval", Munavvar Qori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi soniy", "Tavjid", "Havoyiji diniya", "Yor yuzi", "Usuli hisob", "Tarixi anbiyo", "Tarixi Islom", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bolalar mahbubi", "Amaliyoti Islom" va boshqa bir qator asarlar yaratdilar. [1: 481] Shu bilan bir qatorda, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yengil adabiyot", "Qiroat kitobi" darsliklari xalqni ma'rifatli qilishga bo'lgan harakatining yorqin isbotidir.

XX asr o'zbek adabiyotiga chin ma'nodagi tamal toshini qo'ya olgan, ma'rifatparvar, dramaturg, shoir, publitsist, tarjimon, faol jamiyat vakili Hamza Hakimzoda Niyoziy ziyoli oilasida dunyoga keldi. Otasi – tabib, onasi ham ziyoli. Adabiyotga kirib kelishiga unga ushbu muhit ham katta ta'sir etdi. Hamza turli xil sohalarda ijod qilib, har bir sohaning o'zgacha tomonini topa olganligi uchun shoirni "novator" deb atashgan. XX asrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy vaziyat Hamza ijodiy faoliyatiga ta'sir etmay qolmadi. Bu ta'sir uning kuchli ijodkor sifatida shakllanishi bilan izohlanadi. Abdulla To'qmullundan ta'lim oladi, Ikrom ibn Abdusalomdan esa arab tilini o'rganadi. Bu esa uning badiiy ijodga bo'lgan qarashlarini yana bir marotaba oshirdi. "Hamza o'z ijodini an'anaviy lirik she'rlar yozishdan boshladi. U "Nihoniy" (yashirin, maxfiy ma'nolarini beradi) taxallusida ijod qildi. 1905–1914-yillarda ushbu taxallusda yaratgan she'larini to'plab, "Devoni Nihoniy"ni tuzdi. Devonga shoirning 177 ta she'ri kirtilgan bo'lib, ulardan 150 tasi g'azal, qolganlari: masnaviy, murabba, muxammas, musaddas va 1 ta maktubdan tashkil topgan. Bulardan 165 ta she'r o'zbek tilida, 10 ta she'r fors-tojik tilida, 2 ta she'r o'zbek va rus tilida shir-u-shakar janrida yozilgan". [2: 245]

Shoir ijodiy faoliyatini xalqqa tez va oson yetkazib berish uchun folklor adabiyotidan ashulaga murojaat etdi. Nazmda va nasrda qalam tebratishdan tashqari, Hamza musiqa, san'at, rejissorlik sohalariga katta qiziqish bildirgan. Hattoki, ayrim sahna ko'rinishlarida o'zi aktyor vazifasini bajargan. Bu esa Hamzaning chin ma'nodagi davr jonkuyari ekanligidan darak beradi. Shoir davlatdagi istibdodni, millat ilmsizligini, uni jaholatdan qutqarish kerakligini ta'kidlaydi. Buni u o'z ashulalarida xalqqa da'vat shaklida ifodalaydi. Shoirning birinchi jahon urushi arafasida xalq orasida mashhur bo'lgan "Lum-lum Mamajon" ashulasi ohangida yaratgan "Yig'la Turkiston" she'ri quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Lum-lum, lum-lum Mamajon, lum-lum Mamajon
Istakonda choy ichsa, lum-lum Mamajon. [2: 250]

Ushbu satrlar bilan shoir davr tuzumini ifodalab beradi. O'sha davrdagi holat boshlang'ich baytning o'zida mujassamlangan. "Istakonda choy ichish" kalit so'z vazifasida kelmoqda.

Ashulalar qatoridan joy oluvchi "Muborak" ashulasi 1928-yil mart oyida yozilgan:

E Zubdai [3: 163] *basharlar, ming marhabo muborak,*
Ozoda yarashmish, hay-hay juda muborak.

Tarixda 1927-yil 7-mart ayollar o'z erki uchun qurbon bo'lgan kun deb qaraladi. Ayollar o'z paranjisini olovga otib, bu harakatni ozodlik uchun deb bildirishadi. Shoir oradan 1 yil o'tib, ushbu ashulani yozadi.

Ayollarni "Zubdai bashar", ya'ni kishilarning sarasi deb ataydi. Ularni ozodlik bilan qutlaydi.

Hay-hay, na xush yarashmish, saf-saf, bo'lib turishlar,
Lashkarcha eskilikka mardona mavj urushlar,
Bayroq xinali qo'lda, silqib go'zal yurishlar,
Gulshanning gullaridek, ol yashnab u turishlar,
Chin ma'rifat nuridan, dilga upo muborak.

Hamza ayollarning erkini butunlay ijobiy baholaydi. Ularning chiqishini eskilikka qarshi dengizning mavj urushi deb baholaydi. Ammo bu kurashda xinoga yashiringan iboni yo'qolmasligi, balki u ozodlik bayrog'i bilan qorishib ketganligini aytadi. Ularni gulshanning beqiyos guliga o'xshatish bilan birga, ma'rifatdan bahra olishdek baxt bilan qutlaydi.

Ash'or adiblariga ilhom etar jamoling
Dedi quyosh oyga, "Bizdan bukun uyoling",
Ozodlik chog'ida topqil yana kamoling.
Bersin hayotga sayqal, oynayi jamoling,
Topsin tashabbusingdan ishlar baqo muborak.

Hamza ushbu baytda o'xshatish qilgan, ya'ni quyosh timsolida – zabardast yigitlarni nazarda tutsa, oy timsolida esa munis ayollarni ilgari surib, jamiyatning o'sha davrda qo'llab-quvvatlangan, shoirning nazdida mutlaqo xato bo'lgan fikrni qo'shtirnoq ichida, kinoya yordamida "Bizdan bukun uyoling" tarzida ifodalagan. Endi jamoling butun bir hayotga sayqal bo'lsin deya, ozodligini takor ravishda qutlagan.

Noz uyqudan uyg'ongil, ozodsan qafasdan,
Qayril bu yon xurofot, bid'at, suq-u nafasdan.
Folbin, mozor, duoxon, kuchuk, tumor alasadan,
Behuda u yasanlar, jangir-jungur havasdan
Turmushda xo'p kurarsen, nash-u namo muborak.

Ashula oxirida Hamza ayollarning yana bir bor dilband, dilozor, nozik xilqat ekanliklarini yodga oladi. Jamiyatdagi haqsizliklardan, yolg'onchilig-u munofiqlikdan nari ketishini ta'kid etadi. Hayotning behuda sinovlariga aldanmasligiga da'vat etadi. Shoir nazdida ularning ozodlikka erishishi, qafasdan qutulgan qushga qiyoslanadi.

Ashula xotin-qizlarning erkini qutlash maqsadida yozilgan. Hamzaning ijodida bu kabi ijod namunalari ko'plab uchraydi. Asosan, shoir xotin-qizlarni ham ma'rifatli bo'lishga chaqiradi, jumladan, "O'zbek xotin qizlari" she'rida ham:

Keldi ochilur chog'i, o'zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni, har tomon parishon qil.

Maktab anjuman borg'il, unda fikr ochib gohi,
Ilm-u fan tig'i birlan jahl bag'rini qon qil. [4: 74]

Ushbu baytdan ham ma'lumki, shoiming yagona maqsadi – xotin-qizlar erksizligiga qarshi kurashish, ularni ilm-ma'rifatli qilish, ularni ham jamiyatning tom ma'nodagi kishanlariga qarshi da'vat etish.

Mustaqillik yillaridan so'ng Hamzani o'rganish, uning ijodini tadqiq etish boshlandi. Naim Karimovning "Hamzani kim o'ldirgan?", Begali Qosimovning "Yangi tafakkur, izlanish mashaqqati", Gulandon Tog'ayevaning "Uyg'oqlikka da'vatkor ijod", Ulug'bek Dolimovning "Hamza Hakimzoda Niyoziy" kabi ilmiy izlanishlari bunga misoldir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy adabiyotimizning zabardast vakillaridan. Uning har bir ijod namunasida taassurot va fikr uyg'unligiga duch kelish mumkin. Hamzaning millat tarixida journalist, dramaturg, shoir, rejissor sifatidagi xizmatlari beqiyos. Xulosa qilib aytish mumkinki, Hamza o'z davrida qilich o'rniga o'tkir qalamidan foydalangan ma'rifatparvardir.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Murtazayeva H., Odilov A. O'zbekiston tarixi. – Donishmand ziyosi, 2020.
2. Qosimov B., Yusupov Sh. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
3. Madaliyeva A. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'plam. 1991.

Aziza AVEZOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

ALISHER NAVOIY "TURKIYLAR CHOSERI"MI?

Faxr bilan aytish mumkinki, o'zbekning ma'naviy dunyosini boy qiluvchi buyuk adabiy merosi bor. Ba'zan hayot tashvishlarini chetga suraman-da, qo'limga Navoiyni olaman. Navoiydan najot istab o'qiyman-u, kitobdan taralayotgan nurdan ko'zim qamashadi. Har gal bosh ko'tarsam, dunyo ko'zimga boshqacha ko'rinadi, atrof yorishib, hamma tashvishlar o'z-o'zidan qayergadir yo'qoladi. O'ylasam, men Navoiy va baxt so'zini yonma-yon, birgalikda, o'zimcha kashf etib borayotgan yo'lda ekanman. Toki sinovlarga boy bu hayotda atrofga pok nazar ila qarashga undaydigan Navoiyning "Xamsa"si bor ekan, kelajak sari baxtli va dadil qadam tashlashdan baxtiyor bo'lmog'imiz kerak.

Yaqinda Internet tarmog'ida AQShlik islomshunos olim Barri Xobermanning "Saudi Aramco World" jurnalida chop etilgan maqolasi e'tiborimni jalb qildi. Maqola Navoiy haqida edi va unda butun dunyo hazrat Navoiyni tan olishi juda chiroyli dalillar bilan asoslangan. Navoiyni